

## I. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yil 1-iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (*fermer va dehqon xo'jaliklarisiz*) 22 665 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 21 556 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 95,1 foizni tashkil qildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Navoiy shahrida (24,1 foiz), Qiziltepa (12,7 foiz), Karmana (15,9 foiz) va Xatirchi (11,9 foiz) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (2021-yil 1-iyul holatiga)

	<i>Ro'yxatga olingan</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>22665</b>	<b>100,0</b>	<b>21556</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	5473	24,1	4998	23,2
Zarafshon sh.	1567	6,9	1475	6,8
G'ozg'on sh.	97	0,4	95	0,4
Konimex	881	3,9	857	4,0
Qiziltepa	2877	12,7	2754	12,8
Navbahor	2311	10,2	2189	10,2
Karmana	3607	15,9	3483	16,2
Nurota	1643	7,3	1613	7,5
Tomdi	500	2,2	477	2,2
Uchquduq	1014	4,5	994	4,6
Xatirchi	2695	11,9	2621	12,1

### Ro'yxatdan o'tgan sub'ektlarning hududlar bo'yicha ulushi, (% da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (34,2 foiz), sanoat (15,8 foiz), qurilish (7,6 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (11,3 foiz) sohalariga to'g'ri keldi.

### Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (2021-yil 1-iyul holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan, % da	birlik	jamiga nisbatan, % da
<b>Jami</b>	<b>22 665</b>	<b>100,0</b>	<b>21 556</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 570	11,3	2 476	11,5
sanoat	3 583	15,8	3 376	15,7
qurilish	1 731	7,6	1 630	7,6
savdo	7 742	34,2	7 414	34,4
tashish va saqlash	694	3,1	656	3,0
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 448	6,4	1 342	6,2
axborot va aloqa	235	1,0	216	1,0
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	300	1,3	297	1,4
boshqa turlari	4 362	19,3	4 149	19,2

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**  
(2021-yil 1-iyul holatiga)



11,5 %

**Qishloq, o'rmon va  
baliqchilik xo'jaligi**

15,7 %



**Sanoat**

7,6 %



**Qurilish**

34,4 %



**Savdo**

3,0 %



**Tashish va saqlash**

6,2 %



**Yashash va ovqatlanish  
bo'yicha xizmatlar**

1,0 %



**Axborot va aloqa**

1,4 %



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy  
xizmatlar ko'rsatish**


19,2 %



**Boshqa turlar**


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlarning ulushi 95,1 foizni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,9 foizni tashkil etganligini ko'rsatmoqda.

## Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




2021-yil 1-iyul holatiga 19 407 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5 040 ta, oilaviy korxonalar – 3 885 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10 224 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 21 ta, unitar korxonalar – 56 tani va 181 tani boshqa tijorat korxonalarini tashkil etadi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy- huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2021-yil yanvar-iyun oylarida jami 2 379 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, 2020-yilning shu davriga nisbatan 88,4 % ni tashkil etadi, yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy shahri (477 ta), Karmana (351 ta), Navbahor (281 ta), Xatirchi (248 ta), tumanlariga to'g'ri keladi. Eng kam esa Tomdi (92 ta), Konimex (65 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi savdoda 34,3 foiz, sanoatda 22,7 foiz, qurilishda 5,0 foiz va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 15,0 foizni tashkil etdi.

2021-yil 1-iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni 19 322 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,8 foizga oshdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi, ya'ni 4 410 tasi (jami sub'ektlarning 22,8 foizi) Navoiy shahri, 3 224 tasi (16,7 foizi) Karmana, 2 525 tasi (13,1 foizi) Qiziltepa, 2 325 tasi (12,0 foizi) Xatirchi hamda 2002 tasi (10,4 foizi) Navbahor tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Eng kam faoliyat ko'rsatayotganlar esa 404 tasi (2,1 foizi) Tomdi, 725 tasi (3,8 foizi) Konimex, 880 tasi (4,6 foizi) Uchquduq tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Ro'yxatdan o'tgan kichik biznes sub'ektlari

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

(2021-yil 1-iyul holatiga)

	<i>Jami</i>	<i>Faoliyat yuritayotgan</i>	<i>Faoliyat yuritmayotgan</i>	<i>2021-yil yanvar-iyun oylarida yangidan tashkil etilgan</i>	<i>2021-yil yanvar-iyun oylarida faoliyati tugatilgan</i>	<i>1000 kishiga to'g'ri keladigan KB sub'ektlari</i>
<b>Jami</b>	<b>20371</b>	<b>19322</b>	<b>1049</b>	<b>2323</b>	<b>1016</b>	<b>22,3</b>
Havoiy sh.	4844	4410	434	446	125	29,7
Zapafshon sh.	1415	1327	88	159	243	15,6
G'ozg'on sh.	73	71	2	61	-	8,2
Karmana	3346	3224	122	345	84	27,7
Konimex	749	725	24	113	50	25,5
Qiziltepa	2642	2525	117	243	63	20,5
Navbahor	2121	2002	119	277	33	22,1
Nurota	1459	1429	30	129	51	21,3
Tomdi	426	404	22	92	19	48,1
Uchquduq	900	880	20	212	149	26,3
Xatirchi	2396	2325	71	246	199	15,4


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining hududlar bo'yicha soni

	<i>2020-yil 1-iyul holatiga</i>		<i>2021-yil 1-iyul holatiga</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>16 974</b>	<b>100,0</b>	<b>19 322</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	3 755	22,1	4 410	22,7
Zarafshon sh.	1 361	8,0	1 327	6,9
G'ozg'on sh.	-	-	71	0,4
Konimex	604	3,6	725	3,7
Qiziltepa	2 289	13,5	2 525	13,1
Navbahor	1 695	10,0	2 002	10,4

	2020-yil 1-iyul holatiga		2021-yil 1-iyul holatiga	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
Karmana	2 771	16,3	3 224	16,7
Nurota	1 293	7,6	1 429	7,4
Tomdi	294	1,7	404	2,1
Uchquduq	796	4,7	880	4,5
Xatirchi	2 116	12,5	2 325	12,0

Faoliyat ko'rsatayotgan jami 19 322 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlarining 7 400 tasi (38,3 foizi) – savdoda, 3346 tasi (17,3 foizi) - sanoatda, 2 442 tasi (12,6 foizi) - qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 1 621 tasi (8,4 foizi) - qurilishda, 1 340 tasi (6,9 foizi) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 648 tasi (3,4 foizi) - tashish va saqlashda, 233 tasi (1,2 foizi) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 210 tasi (1,1 foizi) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 2 082 tasi (10,8 foizi) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keldi.

**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 1-iyul holatiga ko'ra) birlikda




2021-yil 1-iyul holatiga Navoiy shahrida jami ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 41,4 foizni (434 ta), Navbahor tumanida esa ro'yxatdan o'tganlarning jami sonida 11,3 foizni (119 ta), Nurota 3,1 foizni (32 ta), Uchquduq 1,9 foizni (20 ta), Konimex 2,3 foizni (24 ta), va Tomdi tumani 2,1 foizni (22 ta) tashkil qilgan.

Hisobot davrida 1 016 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan sanoat 241 ta (23,7 foizi), savdo 395 ta (38,9 foizi), qurilish 47 ta (4,6 foizi) hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 98 ta (9,6 foizi) sohalariga to'g'ri keladi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2021-yil 1-iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 230 tani tashkil etdi. Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 143 tasi qo'shma korxonalar, 87 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni**  
(2021-yil 1-iyul holatiga)



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni**

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>Jami</b>	<b>230</b>	<b>143</b>	<b>87</b>
Navoiy sh.	70	50	20
Zarafshon sh.	16	9	7
G'ozg'on sh.	1	-	1
Konimex	7	5	2



	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>Qo'shma korxonona</i>	<i>Xorijiy korxonona</i>
Qiziltepa	15	8	7
Navbahor	9	7	2
Karmana	64	38	26
Nurota	25	15	10
Tomdi	7	6	1
Uchquduq	8	1	7
Xatirchi	8	4	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Navoiy shahri 70 ta (30,4 foiz) va Karmana 64 ta (27,8 foiz) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Tomdi, Konimex tumanlarida 7 tadan (3,0 foiz), Xatirchi, Uchquduq 8 tadan (3,5 foiz) va Navbahor 9 ta (3,9 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar bo'yicha soni va ulushi**  
(2021-yil 1-iyul holatiga)

	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>230</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	70	30,4
Zarafshon sh.	16	7,0
G'ozg'on sh.	1	0,4
Konimex	7	3,0
Qiziltepa	15	6,5
Navbahor	9	3,9
Karmana	64	27,8
Nurota	25	10,9
Tomdi	7	3,1
Uchquduq	8	3,5
Xatirchi	8	3,5

Faoliyat ko'rsatayotgan 230 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 135 tasi (58,7 foiz) sanoat, 28 tasi (12,2 foiz) savdo, 29 tasi (12,6 foiz) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 4 tasi (1,7 foiz) tashish va saqlash, 13 tasi (5,7 foiz) qurilishda, 4 tasi (1,7 foiz) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 1 tasi (0,4 foiz) axborot va aloqa, 2 tasi (0,9 foiz) sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 14 tasi (6,1 foiz) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi**  
(2021-yil 1-iyul holatiga)

	<i>birlik</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>230</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Sanoat	135	58,7
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	29	12,6
qurilish	13	5,7
savdo	28	12,2
tashish va saqlash	4	1,7
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	1,7
Axborot va aloqa	1	0,4
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	0,9
boshqa turlari	14	6,1

2021-yil yanvar-iyun oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 9 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 taga kamaygan.

Bunda Tojikiston Respublikasi - 1 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 3 ta, Eron Islom Respublikasi - 2 ta, Qirg'iziston respublikasi - 1 ta.

9 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Navoiy (2 ta) va Zarafshon (2 ta) shaharlarida, Karmana (2 ta), Nurota, Qiziltepa, Konimex (1 ta) tumani hissasiga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining hududlar kesimidagi soni va ulushi**

	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>9</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	2	22,2
Zarafshon sh.	2	22,2
G'ozg'on sh.	-	-
Konimex	1	11,1
Qiziltepa	1	11,1
Navbahor	-	-
Karmana	2	22,3
Nurota	1	11,1
Tomdi	-	-
Uchquduq	-	-
Xatirchi	-	-

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 6 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 3 ta.

2021-yil 1-iyul holatiga 6 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar hisoblanib, shundan Navoiy shahri (3 ta), Konimex, Qiziltepa va Tomdi tumani (1 tadan) hissasiga to'g'ri keldi.

**Oilaviy korxonalar.** Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021-yil 1-iyul holatiga 4 056 tani tashkil etib, ulardan 3 885 tasi yoki 95,8 foiz faoliyat yuritmoqda.

2021-yil 1-iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,0 foizga yoki 447 taga ko'paydi.

**Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi,  
1-iyul holatiga ko'ra, birlikda**

